



XALQ DEPUTATLARI KATTAQO'RG'ON TUMANI KENGASHINING Q A R O R I

2025-yil 29-yanvar

VII-5-13-7-96-K/25

Kattaqo'rg'on tumani

Xalq deputatlari tumani Kengashining 2024-yil 26-sentabrdagi VI-108-119-7-96-K/24-son qaroriga o'zgartirish kiritish haqida

O'zbekiston Respublikasi "Ma'muriy tartib-taomillar to'g'risida"gi Qonunining 59-moddasiga "Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida"gi Qonunining 6- va 24-moddalariga muvofiq VII chaqiriq xalq deputatlari tuman Kengashining 5-sessiyasi

QAROR QILADI:

1. Tuman Iqtisodiyot va moliya bo'limi boshlig'i o'rinbosari M.Obbozovning 2024-yil 6-yanvardagi 02/01-38-8-sonli xulosasiga asosan, xalq deputatlari tuman Kengashining VI-108-119-7-96-K/24-son (keyingi o'rinlarda – "VI-108-119-7-96-K/24-son qarori") qaroriga o'zgartirish kiritishni so'rab qilgan bildirgisi ma'lumot uchun qabul qilinsin.

2. VI-108-119-7-96-K/24-son qarorining 2-ilova mazkur qarorning 1-ilovasiga muvofiq o'zgartirish kiritilsin.

3. VI-108-119-7-96-K/24-son qarorning qolgan bandlari hamda ilovalari o'z kuchida va o'zgarishsiz qoldirilsin.

4. Tuman Iqtisodiyot va moliya bo'limi (M.Obbozov)ga tegishli o'zgartirish kiritish vazifasi yuklatilsin.

5. Mazkur qaror ijrosini nazorat qilish xalq deputatlari tuman Kengashining mahalliy byudjet, tadbirkorlikni rivojlantirish va iqtisodiy islohatlar bo'yicha doimiy komissiyasi (A.Xudayberdiyev) va tuman hokimining birinchi o'rinbosari N.Jo'latov zimmasiga yuklatilsin.

Kengash raisi



NASRIDDINOV
JAMSHID
TULKINOVICH

Xalq deputatlari Kattaqo'rg'on tumani Kengashining
2025-yil 29-yanvardagi
VII-5-13-7-96-K/25 -son qaroriga
1-ilova

Loyiha turi: Jihozlash						
Tashkilot nomi: Kattaqo'rg'on tuman ko'p tarmoqli Poliklinikasi						
Jihoz nomi	O'lchov birligi	Narhi	Ma'qullangan mablag'	Ma'qullangan soni	Soni	Qiymati
D harfi bo'yicha						
Dializ apparati	Dona	300 000 000	270 000 000	1	1	270 000 000
I va Y harflari bo'yicha						
Inkubator (kuvez)	Dona	150 000 000	110 000 000	2	2	220 000 000
K harfi bo'yicha						
Kislorod berishning markazlashtirilgan tizimi	Dona	240 000 000	200 000 000	1	1	200 000 000
Kompyuter	Dona	6 500 000	6 000 000	10	10	60 000 000
Konditsioner	Dona	30 000 000	10 000 000	2	2	20 000 000
P harfi bo'yicha						
Patronaj sumkasi	Dona	1 450 000	950 000	20	20	19 000 000
Printer, skaner, kseroks oborudovaniye	Dona	6 000 000	6 000 000	4	4	24 000 000
T harfi bo'yicha						
Televizor	Dona	3 500 000	3 500 000	20	20	70 000 000